

“Boshlang`ich ta`lim nazariyasi va metodikasi” kafedrası dotsenti f.f.n

Jumaniyozova Muhabbatning

Pedagogika fakulteti BT va STI

yo`nalishi 3-bosqichida

“Gap va uning tasnifi”

mavzusida o`tkazgan ochiq darsi

taqdimoti

R E J A:

- Gap haqida umumiy tushuncha
- Gapning asosiy logik-grammatik belgilari
- Gapning tasnifi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o`zbek tili. Toshkent.2007
- Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O`zbek tili. – Toshkent: «O`qituvchi», 1978.
- Shoabdurahmanov Sh. va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent, «O`zbekiston», 1992.
- Ikramova R., Muhammadjonova D., Shodmonqulova D. va boshqalar. Hozirgi zamon o`zbek tili. (Ma`ruza matnlari). – Toshkent, 2004.
- Internet saytlar. www.pedagog.uz, www.ziyo.net,
www.edu.uz, www.bilim.uz.

Aloqa-aralashuv vositalarning eng kichik birligi gapdir. Gap nutq birligi sanaladi. Tilshunoslikda gapga nisbatan juda ko'p ta'riflar berilgan. Gapni gap qilib turuvchi uchta asosiy belgi mavjud:

1. Har qanday gap ma'lum bir ob'ektiv borliqni ifodalashi nuqtai nazardan nisbiy tugallikka ega.

Masalan: Bahor fasli boshlandi.

2. Har qanday gap intonatsion tugallikka ega bo'ladi. Asosiy belgalardan biri intonatsion tugallikdir.

Masalan: Paxta mavsumi tugadi, talabalar o'qishga qaytdilar.

3. Gapning yana bir asosiy belgisi predikativlikdir. Modallik gap orqali ifodalanayotgan xabarga yoki voqelikka bo'lgan so'zlovchining turli munosabatidir. Bu munosabat asosan gapning kesimi orqali ifoda etiladi. Uni ifoda etuvchi vositalarga fe'lning mayllarini ko'rsatuvchi qo'shimchalar, modal so'zlar hamda intonatsiya kiradi. Misol: dunyoning tinchligi buzilmasin hech. Olasiz (olib bo'psiz). Hayriyat, imtihondan o'tib oldim.

O`zbek tilida gaplar quyidagi belgilarga ko`ra tasnif qilinadi.

1. Ifoda maqsadga ko`ra turlari.
2. Emotsionallikka ko`ra gap turlari:
3. Gapning voqelikka munosabati jihatidan turlari:
4. Gapning tuzilishiga ko`ra turlari:
5. Grammatik asosiga ko`ra gap turlari.
6. Gap muchalari xarakteriga ko`ra turlari:
7. Gapning kommunikativ vaziyatiga ko`ra turlari:

1.Ifoda maqsadga ko`ra turlari.

Har bir gap o`zida so`zlovchining yoki yozuvchining shu gapini aytishidan maqsadini ham ifoda etadi. Shu gap orqali muallif bir fikrni aytmoqchi yoki so`ramoqchi bo`lsa yoxud o`zining xohish yoki iltimosini bayon qiladi. Shunga ko`ra gaplar uchga bo`lib o`rganiladi.

- 1) darak gap
- 2) so`roq gap
- 3) buyruq gap

2. Emotsionallikka ko`ra gap turlari:

Gaplar o`zida kishining ichki xis tuyg`ularini ifodalashi yoki ifodalanmasligiga qarab ikkiga bo`lib o`rganiladi.

- 1) emotsional gaplar
- 2) emotsional bo`lmagan gaplar.

Emotsional gaplar maktab darsliklarida undov gaplar deb yuritiladi. Emotsional gaplar kimning ichki xis-tuyg`ularini ifodalab ko`tarinki rux bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Eh, qanday go`zal manzara!

3. Gapning voqelikka munosabati jihatidan turlari:

- 1) Tasdiq gap. Masalan: Qish boshlandi
- 2) Inkori gap. Masalan: Qish hali boshlanmadi.

4. Gapning tuzilishiga ko`ra turlari:

1) Sodda gaplar.

Bunday gaplar bir struktura asosidan, ya'ni bir ega va bir kesim markazidan tashkil topadi.

Ikkinchi darajali bo`laklar esa ana shu 2 markaz atrofida jamlanadi.

Masalan: Bog`da bulbul sayraydi.

2) Qo`shma gaplar.

Ikki struktura asosidan, ikki predikativ birlikdan tashkil topadi.

Masalan: Bog`da bulbul sayraydi, ko`nglim guldek yayraydi.

5. Grammatik asosiga ko`ra gap turlari.

Bunga ko`ra ham gaplar 2 turga bo`linadi.

1) Bir bosh bo`lakli gaplar

2) Ikki bosh bo`lakli gaplar.

Faqat birgina bosh bo`lakdan tashkil topgan gaplar bir bosh bo`lakli deyiladi. Gapda faqat 2 bosh bo`lakli bo`ladi. Demak faqatgina ega yoki aloqador bo`lgan tarkibdan yoki kesim va unga aloqador bo`lgan so`zlardan tashkil topgan gaplar bir bosh bo`lakli gaplar deyiladi.

Masalan: Qishda Chimyonga boramiz.

Maktab bog`ida ishladik

6. Gap muchalari xarakteriga ko`ra gaplar ikki xil bo`ladi:

- 1) Bo`laklarga ajraladigan gaplar. Masalan: Istiqlol xalqimiz uchun eng oliy ne'mat.
- 2) Bo`laklarga ajralmaydigan gaplar. Masalan: Salom, dada.

7. Gapning kommunikativ vaziyatiga ko`ra turlari:

1) To`liq gaplar.

Masalan: Kuzda mevalar g`arq pishadi.

2) To`liqsiz gaplar

Masalan: - Ertaga kutubxonaga borasanmi?

- Ha, bormoqchiman